

Bu voqea janubiy Ispaniyaning tog'li deparalaridan birida ro'y berdi.

Iyun oyining so'lim oqshomi edi, oydin kecha, to'lin oy osmon peshtoqida osilib turardi, odatan, kunduzi jala quyib o'tgan bo'lsa, dimiqqan kechalari oy nafarmon nur taratadi, binafsha gullayotgan kezlarda bu hol tabiiy hisoblanadi, pastak janub o'rmonlari bilan qoplangan yassi tog'larning dovonlari sutday oqarib ko'zga yaqqol tashlanib turardi, dovon ufqqa bosh qo'ygan.

Dovonlar orasiga joylashgan ensiz vodiy shimol tomonga cho'zilib ketgan. Vodiyning bir tarafiga dovonning ko'lankasi tushib turar, mozor sukunati hukm surayotgan bu oqshomda tog' jilg'asi bir maromda jildirar, goh safsar ma'dan, goh yoqut, goh tillaqo'ng'iz sirlil sochar, olamni nurga to'ldirayotgan mo'v'ijiza ko'zni qamashtirardi. Qarshi tarafdagi adirlar vodiyan chekinib, o'rnini past tekisliklarga bo'shatib bergan, tekislik bo'ylab eski tosh yo'l o'tgan. Shu pastlikda joylashgan toshqo'rg'on ham nihoyatda ko'hna ko'rinardi. Bemahalda toshqo'rg'onga oldingi o'ng oyog'i oqsayotgan to'riq ayg'ir otini qichamasdan minib kelayotgan marokashlik bir kishi tashrif buyurdi. U baland bo'yli, oq jundan to'qilgan keng-mo'l yaktak kiyib, boshiga popukli hojido'ppi qo'ndirib olgan edi.

Toshqo'rg'on odam zoti qirilib ketgandek huvillab yotardi, o'z holiga tashlab qo'yilganga o'xshardi. Aslida ham shunday edi. Marokashlik kishi dastlab sersoya ko'cha bo'ylab, tosh-devor uylar oralab o'tdi; uylarning derazalari o'rnida bo'shliq qorayib ko'rinardi, tomorqadagi bog'lar yovvoyilashib ketgan edi. Keyin u oydin maydonga chiqdi; bu yerda ustiga shiypuncha qilingan hovuz, peshtoqiga Madonnaning zangori haykalchasi o'rnatilgan cherkov, hamon odamlar istiqomat qilayotgan bir nechta hovli bor edi. Oldinda esa, maydonga kiraverishda karvonsaroy joylashgan. Pastki qavatdagi derazalardan g'ira-shira nur taralardi. Egar ustida mudrab kelayotgan marokashlik birdan hushyor tortib, jilovni siltadi, oqsab kelayotgan ot o'nqir-cho'nqir tosh to'shalgan maydon bo'ylab jadal yurib ketdi, tuyoq tovushlari tun qo'ynidan aks sado berardi. Tuyoq tovushini eshitib karvonsaroy bo'sag'asiga kichrayib, qoq suyak bo'lib qolgan kampir chiqdi, daf'atan uni tilanchiga o'xshatish mumkin edi. So'ng kulcha yuzli, o'n besh yoshlar chamasidagi qizaloq ostonada paydo bo'ldi; uning jamalagi peshonasiga tushib turar, yalang oyoqlariga shippakcha ilib olgan, egnida oqish pechakgul tusidagi yengil kuylak. Bo'sag'aga boshini qo'yib yotgan eshakdek qop-o'ora it ham o'rnidan turdi, uning junlari sip-silliq bo'lib, kesilgan quloqlari ding bo'lib turardi. Marokashlik kishi ostonaga yetar-etmas otdan tushdi. It shu zahoti ko'zlarini chaqnatib, tishlarini xunuk irjaytirib olg'a tashlandi. Marokashlik qamchisi bilan itni haydashga urindi. Qizaloq darhol itga tanbeh berdi:

- Negra! deb qichqirdi jarangdor tovushda. Senga nima bo'ldi?!

It boshini egib asta-sekin orqasiga qaytdi, tumshug'ini devorga qadab yotdi.

Marokashlik kishi ispan tilini buzib gapirardi, salom-alikdan qildi, so'ng shaharda temirchi bormi deb so'radi, ertaga otni taqalatish kerak ekan. Otni kechasi qaerda qoldirish mumkin? Otga yem topiladimi? O'ziga ham ovqat berilsa, chakki bo'lmasdi. Qizaloq uning baland bo'yiga, chechak izlari qolgan cho'tir yuzlariga qiziqsinib qaradi. Qo'noq itga xavotirlanib nazar tashlab qo'ydi, it jimgina yotibdi, xuddi xafa bo'lib qolganga o'xshardi, qulog'i xiyla og'ir kampir esa tovushini ko'tarib shosha-pisha javob qaytardi: temirchi bor, xizmatkor uy yonidagi molxonada uxlab yotibdi, kampir uni hozir uyg'otadi, u otga yem beradi. Ovqat masalasida ham mehmonning ko'ngli to'q bo'lsin: tuxum quymoq tayyorlab berish mumkin, lekin kechki ovqatdan fakat oz-moz loviya bo'tqa bilan sabzavot qovurdoq qolgan, ular isitib beriladi... Doim shirakayf bo'lib yuradigan xizmatkor chol mehmonning otiga yem berib, egar-jabdug'ini yechib olishda yordamlashdi.

Yarim soatdan sung marokashlik kishi oshxonada zo'r ishtaha bilan ovqatlanib, sarg'imir oq musallasni yutoqib ichib o'tirardi... Karvonsaroy ko'hna edi. Pastki qavat uzun-uzun dahlizlardan iborat bo'lib, yo'lak oxirida yuqori qavatga chiqiladigan aylanma zinapoya bor. Yuqori qavat ikkiga bo'lingan: chap tomonda keng-mo'l, lekin shifti pastak xonalar, xonalarga kambag'al qo'noqlar tunashi uchun so'richalar qo'yilgan; o'ng tomonda ham pastak shiftli oshxona, shiftlariyu devorlari quyuq tutundan qasmoq bo'lib ketgan yemakxona, devorlari xiyla qalin bo'lgani bois tokchadan ichkariga o'rnatilgan kichik derazalar, burchakda o'choq, ustiga hech narsa yopilmagan stol, yonida o'tirgichlar, yerga g'adir-budur toshdan to'shama qilingan, u silliq-sirpanchiq bo'lib ketgan. Bu xonada kerosin lampa mitillab turardi, u qop-qorayib ketgan temir zanjirga osib qo'yilgan, xonaga achimsiq tutun va piyozdog' hidi o'tirib qolgan. Kampir o'choqqa o't yoqib sovub qolgan qovurdoqni isitdi, mehmon sirka va zaytun moyi aralashirilgan sovuq loviya bo'tqani yeb bo'lguncha tuxum quymoq qam tayyor bo'ldi. U yechinmadi, yaktagini ham yechmadi, chotini kerib taltayib o'tirardi, oyoqlarida qalin teridan tikilgan boshmoq bor edi, oq jundan to'qilgan keng-mo'l ishtonining poychasi burmali bo'lib, to'pig'ini qisib turardi. Qizaloq kampirga ko'maklashar, mehmon ish buyursa so'zsiz bajo keltirar, lekin kutilmaganda yeb qo'ygudek o'qrayib qarashlaridan, quruqshagan cho'tir basharasiyu yupqa lablaridan, ko'kimtir mo'ylovidan qo'r qar edi. Qo'noq shundoq ham qo'rqinchli ko'rinardi. Bo'yi juda baland, keng yaktakda yana-da vahimali ko'rinadi, popukli hojido'ppi kiyib olgan boshi xumdek. Ustki labining chetlarida dag'al shop mo'ylovining uchlar jingalak bo'lib buralib qolgan. Soqolinining orasida qam yakkam-dukkam jingala tola uchrardi. Boshini xiyol orqaga tashlab kekkayib o'tirgani bois qo'ng'ir teri ostida o'ynab turgan kekirdak olmasi buqoqchasi odatdagidan yirikrok ko'rinardi. Qorayib ketgan ingichka barmoqlarida kumush uzuklar tovlanib turardi. U miq etmasdan yeb-ichib o'tiribdi.

Kampir qovurdoqni isitib, quymoq pishirib bo'lgach, gulxani so'na boshlagan o'choq yoniga holsizgina cho'kdi va undan qayoqdan qayoqqa ketyapsan deb so'radi baqirib. Mehmon bo'g'iq tovushda:

- Uzoqqa, - deb gapni qisqa qildi.

Qovurdoq bilan quymoqni pok-pokiza tushirgach, bo'shab qolgan ko'zani chayqab ko'rsatdi: qovurdoqqa achchiq qalampir ko'p qo'shilgan ekan, og'zini kuydirib yuboribdi. Kampir boshi bilan qizaloqqa ishora qildi, qizaloq ko'zani olib yemakxonaning qiya ochiq eshigidan chiqib, tim qorong'i dahliz tomon yo'l oldi dahlizda tillaqo'ng'izlar xuddi ertaklardagidek uchqun sachratib bir maromda parvoz etar, ajabtovur nur taratar edi.

Qo'noq qo'ynidan papiros chiqarib tutatdi, qizaloq ketgan tomonga im qoqib:

- Nevarami? deb so'radi.

- Jiyanim, yetimcha, - deb javob berdi kampir qichqirib. So'ng ezmalanib hikoya qilishga tushdi: u marhum akasini, ya'ni qizaloqning otasini juda yaxshi ko'rar, akasini deb qariqiz bo'lib o'tirib qolgan, mana shu karvonsaroy akasining xususiy mulki hisoblanar, akasining xotini bundan o'n ikki yil muqaddam bandalikni bajo keltirgan, o'zi o'n sakkiz yil burun o'lgan, mol-mulkini bir umr foydalanish uchun kampirga vasiyat qilib koldirgan, huvillab yotgan qo'rg'onchada yashash nihoyatda og'irlashib ketgan ekan...

Marokashlik kishi kampirning diydiyosini parishonxotirlik bilan tingladi, unchalik e'tibor bermadi, u o'zining o'y-xayollari bilan band edi. Qizaloq ko'zani musallasga to'ldirib qaytib keldi. Qo'noq unga ko'zlarini lo'q qilib tikilgan cha papiros qoldig'ini shu qadar jahd bilan yutoqib tortdiki, oqibatda kirlab ketgan barmoqlarining uchini kuydirib oldi. So'ng yangi papirosini shosha-pisha

o't oldirib, tovushini ko'tarib kampirga u kampirning qulog'i og'ir ekanini allaqachon sezgan edi murojaat qildi:

- Agar jiyaning musallasni o'z qo'li bilan quyib bersa, bag'oyat mamnun bo'lardim.

- Bu uning ishi emas, - dedi kampir cho'rt kesib. So'ng zardali ohangda qichqirdi: - Kech bo'ldi, musallasni ichib, borib uxlagin.

Hozir jiyanim senga yuqori xonaga o'rin to'shab beradi.

Qizaloq ko'zlarini chaqnatib dik etib o'rnidan turdi, kampirni ortiqcha javratib o'tirmasdan tap-tap qadam tashlab zinapoya bo'ylab yuqoriga ko'tarildi.

- O'zlaring qaerda uxlaysizlar? deb marokashlik hojido'ppisini terlab ketgan peshonasidan bir oz surib kuydi. Yuqorida yotasizlarmi?

Kampir qichqirib gap boshladi: yozda yuqori qavat juda issiq bo'ladi, ijarachilar bo'lmagan chog'larda endi deyarli kelmay qo'ydi - ular pastki qavatning narigi bo'lmasida, qarama-qarshi tomonda, huv anavi xonada yotadilar. U qo'li bilan o'zlari yotadigan xonani ko'rsatib, so'ng yana ishlar chappasiga ketganidan shikoyat qilishga tushdi, hamma narsa qimmat bo'lib ketdi, shu bois, ista-istama yo'lovchilardan ham qimmatroq haq olishga tug'ri keladi...

- Men ertaga vaqtli ketaman, - dedi marokashlik kampirning gaplariga e'tibor bermay. Ertalab faqat qahva bersang bas. Demak, hoziroq hisob-kitob qilib qo'yishimiz mumkin. Xo'sh, qancha bo'ldi? Hozir to'layman. Yo'-o'q, avval mayda pullarimni topay-chi, deb u yaktagining ichki cho'ntagidan yumshok qizil teridan tikilgan hamyonini chiqardi, bog'ichini bo'shatib og'zini ochdi, stol ustiga bir hovuch tillo tangalarni jaranglatib to'kdi. Go'yo pullarini sinchiklab sanayotgandek peshonasini tirishtirdi, kampir esa o'choq yonida o'tirgan o'rindig'idan turib, ko'zlarini ola-kula qilib tillo tangalarga tikildi.

Yuqori qavat qorong'i, juda issiq edi. Qizaloq cho'milish xonasining eshigini ochib qo'ydi. Qorong'ilikdan issiq havo gup etib yuziga urildi, darcha tirqishlaridan yarq etgan nur ko'rindi, bu xonaga ham xuddi pastdagi kabi kichikroq ikkita deraza o'rnatilgan edi. U xona o'rtasidagi yumaloq stolni chaqqon aylanib o'tib derazani ochdi, darcha eshikchalarini itarib tashqariga ochdi. Oydin kecha, bepoyon osmon oqarishib, yakkam-dukkam yulduzlar ko'zga tashlanardi. Nafas olish xiyla yengillashdi, vodiyan jilg'a jildirashi eshitalardi. Qizaloq to'lin oyni tomosha qilish uchun derazadan boshini chiqardi, oy hamon tepada bo'lgani bois xonadan ko'rinmasdi. So'ng qizaloq pastga qaradi: yerda turgan it tumshug'ini ko'tarib unga qaradi. Bundan besh yilcha oldin bitta daydi kuchuk qaylardandir adashib karvonsaroyga kelib qoladi, u qizaloqning ko'z o'ngida katta bo'ladi, qizaloqqa o'rganadi, u egasiga shu qadar sadoqatli ediki, bunday sadoqatni faqat itlardan kutish mumkin. Zotan, it vafodor bo'ladi.

- Negra, nima uchun uxlamayapsan? dedi qizaloq tovushini pasaytirib.

It beozorgina g'ingshib, boshini bir silkitdi-da dahlizning ochiq eshigi tomon tashlandi.

- Qayt, qayt! deb buyurdi qizaloq shoshib. Joyingga bor!

It taqqa to'xtadi, tumshug'ini ko'tarib qizga qaradi, ko'zlaridan uchqun sachrardi.

- Senga nima kerak o'zi? deb so'radi qizaloq erkalovchi tovushda. U doim it bilan xuddi odamdek gaplashardi. Nega uxlamayapsan, esipast? Yo osmondagi oy xayolingni olib qochdimi?

It bir nima deb javob bermoqchi bo'lgandek yana tumshug'ini yuqori ko'tardi, beozorgina g'ingshib qo'ydi. Qizaloq yelkalarini qisdi. Bu it uning sirdoshi, yorug' olamdagi birdan-bir jonli sirdoshi edi. Itning his-tuyg'ulari, o'y-xayollari doimo qizaloqqa tushunarli bo'lardi. Lekin hozir it nima demoqchi, u nimadan xavotirlanyapti buni qizaloq yaxshi anglamadi, shu bois qo'lini arra-arra qilib, yolg'ondakam jahli chiqqandek:

- Negra, joyingga bor! Uxla! deb shivirladi.

It joyiga borib yotdi. Qizaloq deraza yonida yana birpas o'ylanib turdi. Balki, itni anavi marokashlik tasqara xavotirga solgandir?

It karvonsaroy qo'noqlariga deyarli e'tibor bermasdi, hatto ko'rinishidan qaroqchi yoki dordan qochgan kazzobga o'xshagan kimsalarga qayrilib ham qaramasdi. Lekin ba'zan ayrim kimsalarga nima uchundir xuddi quturgandek tashlanib qolardi, momoguldurakdek vovullab oyoqdan olardi. Bunday paytlarda qizaloqqina itni hovuridan tushirib, qaytarib kolardi. Hozir itni bezovta qilayotgan narsa boshka bo'lishi mumkin: dimiqqan kecha, havoda kilt etgan shabada yo'q, osmonda to'lin oy charaqlab nur taratyapti bunday holat har qanday tirik jonni quyushqondan chiqarib yuboradi. Bu oqshom hukm surayotgan g'ayritabiyy sukunat og'ushida vodiy tarafdin jilg'aning jildirashi, molxonada dup-dup yer tepib, shataloq otib yurgan echkinning tuyuq tovushlari baralla eshilib turardi. Qo'qqis qari xachirmi yoki marokashlik qo'noqning ayg'ir otimi gurs etkazib echkini tepib yubordi, echki jonholatda shu qadar xunuk ma'rab yubordiki, quloqni teshib yuboradigan o'tkir tovush uzoq-uzoqlarga taralib ketdi. Qizaloq sapchib o'zini derazadan ichkariga oldi, narigi derazani ham ochib, darcha eshikchasini itarib yubordi. Xona g'ira-shira yorishib qoldi. Xonada stoldan tashqari, eshikdan kiraverishdan ung tomonda uchta keng karavot bor bosh tarafi devorga tirab, ustiga dag'al choyshab tashlab qo'yilgan. Qizaloq choyshablarni yig'ishtirib kiraverishdagi birinchi karavotga tashladi, yosti to'shab, ko'rpacha yozdi. Shu payt xona ertaklardagi mo'v'ijiza maskani kabi yorishib, mayin ko'kimtir shu'laga chulg'andi tillaqo'ng'iz qizaloqning gajagiga qo'ngan edi. Qizaloq uni astagina siladi, tillaqo'ng'iz goh yaltirab, goh xira tortib xona bo'ylab parvoz eta boshladi. Qizaloq dimog'ida xirgoyi qilganacha sakrab-sakrab pastga tushib ketdi.

Yemakxonada marokashlik kishi eshikka orqa o'girib g'o'dayib turar, past, lekin qat'iy ohangda, asabiylashib kampirga bir nimalar deyayotgan edi. Kampir boshini chayqab rad ma'nosini bildirardi. Marokashlik yelkalarini uchirib qo'ydi, xonaga kirib kelgan qizaloqqa shunday o'qrayib qaradiki, sho'rlik jonholatda o'zini orqaga tashladi.

- Joy tayyor bo'ldimi? dedi u bo'g'iq tovushda.

- Hammasi tayyor, - dedi qizaloq shoshib.

- Tepaga qanday chiqishni bilmayman, meni kuzatib qo'lasan.

- Seni o'zim kuzatib qo'yaman, - dedi kampir darg'azab bo'lib. Orqamdan yur!

Kampir aylanma zinapoyadan inqillab-sinqillab yuqoriga ko'tarila boshladi, marokashlik esa boshmoqlarini tap-tap etkazib unga ergashdi. Qizaloq birpas turib tashqariga chikdi. Ostonada yotgan it sakrab turdi, atrofida chir-chir aylandi, dumini likillatib quvonchini izhor etdi, so'ng egasining yuzlarini yaladi.

- Nari tur, nari ket! deb shivirladi qizaloq va erkalab itni itarib yubordi, ostonaga o'tirdi.

It ham orqa oyoqlariga cho'nqayib o'tirdi, qizaloq uning bo'ynidan quchoqlab oldi, peshonasidan o'pdi, o'tirgan ko'yi it bilan birga tebrana boshladi. Yuqori qavatdan marokashlik qo'noqning og'ir qadam tovushlari, bo'g'iq ovozi eshilib turardi. U xotirjamlik bilan kampirga bir nimalar derdi, lekin nima deyayotganini aniq-tiniq anglab bo'lmasdi. Nihoyat, u tovushini ko'tarib:

- Bo'пти, bo'пти! Faqat aytgin, kechqurun ichib yotishim uchun suv keltirib bersin, - dedi.

Zinapoyadan ehtiyot bo'lib tushayotgan kampirning qadam tovushlari eshila boshladi.

Qizaloq daxlizga kirib kampirning yo'lini to'sdi va:

This is not registered version of TotalDocConverter

- Men buningning nega ekanini eshitdim. Peq, o'san yan o'ldiga yolg'iz chiqmayman. Undan qo'rqaman, - dedi qat'iyani.

- Bema'ni gaplarni qo'y, - deb qichqirdi kampir. Sen o'ylaysanki, men yana-tag'in mana shu maymoq oyoqlarimni sudrab tepaga chiqib tushamanmi? Yorug'roq bo'lsa ham koshkiydi. Zinapoyaning sirpanchiligini aytmaysanmi?! Uning nimasidan qo'rqasan?! Tug'ri, u kallavaram, achchig'i burnining uchida turar ekan, lekin yomon odam emas. U sen haqingda kuyib-pishib gapirdi, senga rahmi kelyapti, eh, sho'rlik, sepi bo'lmasa, kim ham uni kelin qilardi deyapti. To'g'ri aytyapti, senda sep nima qilsin! Biz allaqachon xonavayron bo'lganmiz. Anavi bezot diktatorga ming rahmat, hech bo'lmasa, tinchlikni saqlab turibdi. Aslini olganda, bunday tinchlik bo'lganidan ko'ra qir-pichoq urush bo'lgani afzal edi, o'shanda yebto'yimas, xushomadgo'y, olchoq amaldorlardan biryo'la qutulardik... Bechora dexkonlarni kuryapsanmi, kuruk ustixon bulib kolgan. Karvonsaroyga ham gadoynusxa qalangi-qasang'ilardan boshqa hech kim kelmay qo'yd...

- Boya men kirgan paytda nima uchun achchig'lanib turgan edi? deb so'radi qizaloq.

Kampir kalovlanib koldi.

- Nima uchun emish! deb g'uldiradi kampir. Men unga birovning ishiga burningni tiqmagin dedim... Shundan keyin jahli chiqib ketdi... Qani, ivirsima, darhol unga suv eltib ber! dedi kampir zardasi qaynab. Suv eltib bersang u senga bir nima sovg'a kiladi. Va'dasi shunday. Bor deyapman!

Qizaloq ko'zani to'ldirib yuqori qavatgadagi xonaga suv olib chiqdi. Marokashlik qo'noq ust-boshlarini yechib karavotda alchayib yotardi: oy yorug'ida uning mitti ko'zlari yaltirar, sochlari tap-taqir etib olingan boshi qorayib, uzun ichki oq ko'yilagi oqarishib ko'rinar edi. So'laqmondan yalang'och oyoqlarini o'ynatib qo'yardi. Quvuri uzun, barabanli to'pponcha xona o'rtasidagi stolda yaltirab turardi. Ustki kiyim-boshlarini yonidagi karavotga uyub qo'yibdi... Bularning hammasi nihoyatda vahimali ko'rinar. Qizaloq yugurib borib ko'zani taq etkazib stolga qo'ydiyu zing'illab orqasiga qaytdi, lekin marokashlik qo'noq sakrab turdi-da qizaloqning qo'lidan ushlab oldi.

- Shoshma, shoshma, - dedi u qizaloqni karavot tomon tortib. Uni qo'yib yubormasdan karavotga o'tirdi, so'ng: - Bir daqiqa yonimda o'tir, o'tir deyapman, o'tirsang-chi... Gap bunday, yaxshilab quloq sol... deb shivirlay boshladi.

Kapalagi uchib ketgan qizaloq itoatguylilik bilan uning yoniga o'tirdi. U entikib-entikib izhori dil qila boshladi: xudo haqqi, seni ko'rdimu es-hushim boshimdan uchdi, bir ko'rishdayoq sevib qoldim, yolg'on gapirayotgan bo'lsam, ana, tepamda xudo turibdi, bir o'pich uchun o'n tillo, yigirma, bor-e o'ttiz tillo beraman, bir xalta tillo tangam bor... keyin...

Yostiqning ostidan qizil hamyonini olib, qo'llari qaltirab uning bog'ichini bo'shatdi, tillo tangalarni to'shakka to'kib tashladi.

- Mana, ko'rdingmi, tillolarim ko'pmikan?.. Ko'rdingmi?.. deb g'uldiradi.

Qizaloq shahd bilan bosh chayqadi, karavotdan sapchib turdi. Lekin qo'noq uni darhol tutib oldi, quruqshagan, chapdast qo'li bilan og'zini yopib karavotga yotqizdi. Qizaloq jonholatda tipirchilab uning qo'lini og'zidan yulqib tashladiyu:

- Negra! deb chinqirib yubordi.

Endi u qizaloqning og'zini burniga qo'shib mahkam siqib, bo'sh qo'li bilan tipirchilayotgan oyog'ini ushlab harakat qildi; qizaloq esa shataloq otib uning qorniga ayovsiz tepa boshladi. Shu payt zinapoyadan uchib chiqayotgan itning irillashi quloqqa chalindi. Marokashlik qo'noq sakrab o'rnidan turdiiyu stolda yotgan to'pponchasini qo'lga oldi, biroq tepkini topishga ham ulgurmasdan polga quladi it unga tashlanib, ustidan bosib tushdi. Ustiga minib olgan it hamlasidan yuzini to'sib yotgan joyida irg'ishlar, itning issiq nafasi yuziga urilgan chog'da battar to'lg'onar, tipirchilar, oh-voh qilar edi, lekin beixtiyor boshini orqaga tashlab, iyagini ko'targan zahoti it uning tomog'idan g'arch etkazib tishladiyu kekirtagini yulib oldi, halqumidan tizillab qon otilib ketdi.

1949, 23 mart